**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

YULDASHEVA NARGIZA TAXIRJONOVNA

SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI ARALASH TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN NOLOKAL CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024 yil

UDK: 517.956.6

Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

Yuldasheva Nargiza Taxirjonovna
Singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalar. 3

Юлдашева Наргиза Тахиржоновна
Нелокальные краевые задачи для уравнений смешанного типа с сингулярным коэффициентом. 19

Yuldasheva Nargiza Taxirjonovna
Non-local boundary value problems for mixed type equations with a singular coefficient. 37

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 41

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

YULDASHEVA NARGIZA TAXIRJONOVNA

SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI ARALASH TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN NOLOKAL CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM1011 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ruziyev Menglibay Xoltojibayevich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ergashev Tuxtasin Gulamjanovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 7 yanvar kuni soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (194-raqam bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 20 dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 20 dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.

Zamonaviy dunyoda ilm-fan va amaliy tadqiqotlarning jadal rivojlanayotgan ko‘plab sohalari butun va kasr tartibli hosilali aralash tipdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni o‘rganishga olib keladi. Bunday masalalar ko‘pgina biologik, fizik va kimyoviy jarayonlarning tabiiy matematik modellari bo‘lib, gidrodinamika, gaz dinamikasi, sirtlarning cheksiz kichik egilish nazariyasi, aerodinamika, matematik biologiya va fanning boshqa turli sohalarida qo‘llaniladi. Atrof-muhit jarayonlarining matematik modellarini o‘rganish aralash tipdagi tenglamalarning nazariy asosini ifodalaydi.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab ilmiy maktablari nolokal chegaraviy masalalarni, jumladan, chegaraviy shartlarida integral va differentsial operatori qatnashgan chegaraviy masalalarni hal qilish yo‘nalishlarini keng ishlab chiqmoqda. Butun va kasr tartibli hosilali aralash tipdagi tenglamalar uchun o‘rganiladigan lokal va nolokal masalalar murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ob’yektlar, neft havzalari, simlardagi elektr tebranishlari, yer osti suvlaridagi issiqlik va massa almashinuvini matematik modellashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgani uchun filtrlash, g‘ovakli muhit bilan o‘ralgan kanalda suyuqlik harakati va boshqa hodisalar, bunday muammolarni o‘rganish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Kasr tartibli hosilali differensial tenglamalar stoxastik uzatishning fizik jarayonlarini tavsiflash uchun, shuningdek, polimer materiallarning deformatsiyaga chidamlilik xususiyatlarini o‘rganish uchun ishlatiladi. Kasr tartibli hosilali differensial tenglamalar diffuziya, gidrodinamika, klassik mexanika va issiqlik o‘tkazuvchanlik masalalarida paydo bo‘ladi.

Respublikamizda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental fanlarga katta e’tibor berilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, aralash tipdagi singulyar koeffitsiyentli tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalarni o‘rganish hamda ularni yechishning samarali usullarini topishga katta e’tibor beriladi. Matematikaning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borish V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilangan[1]. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, butun va kasr tartibli xususiy hosilali aralash tipdagi tenglamalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyat ega.

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-apreldagi PQ-

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarda, shuningdek, fundamental fanga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalarni o‘rganish xususiy hosilali differentsial tenglamalar nazariyasining muhim bo‘limlaridan biridir. Aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish S.A. Chapligin, F. Trikomi, S. Gellerstedt va F.I. Franklning ishlarida boshlangan. Shvet olimi S. Gellerstedt tomonidan ko‘rib chiqilgan chegaraviy masalalar gaz dinamikasi va aerodinamika sohasida zaruriy qo‘llanmalarga ega. Rossiyalik olimlar V.I. Jegalov va A.M. Naxushev birinchi bo‘lib elliptik-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun siljishli chegaraviy masalalar o‘rganishgan. A.V. Bitsadze va A.A. Samarskiy xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini rivojlantirishga, elliptik tenglama uchun yangi masalalarni shakllantirish va o‘rganishga katta hissa qo‘shishdi.

Keyinchalik elliptik-giperbolik va parabolik-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar S.P. Pulkin, V.F. Volkodavov, M.S. Salahitdinov, T.D. Jo‘rayev, M.M. Smirnov, T.Sh. Kalmenov, E.I. Moiseev, A.P. Soldatov, K.B. Sabitov, A.B. Psxu, A.A. Polosin, O.A. Repin, M.X. Abregov, S.K. Kumyukova, V.A. Naxusheva, Z.A. Naxusheva, M. Mirsaburov, M.A. Sadibekov, A.K. Urinov, A. Xasanov, A.S. Berdishev, B.I. Islomov, M.X. Ruziyev, T.G. Ergashev, Sh.T. Karimov, E.T. Karimov va ularning shogirdlarining ishlarida o‘rganildi.

Keyingi yillarda respublikada ham xorijda ham butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar nazariyasi jadal rivojlanmoqda. Gellerstedt tenglamasi uchun A.A. Polosin tomonidan aralash sohaning giperbolik qismida chegaraviy shartlar chap chegaraviy xarakteristika bo‘lagida va buzilish chizig‘iga parallel bo‘lgan to‘g‘ri chiziq kesmasida berilgan chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan. M. Mirsaburov va uning shogirdlari ishlarida aralash tipdagi tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy shartiga o‘xshash va buzilish chizig‘idagi kesmada Frankl shartiga o‘xshash shartlar bilan chegaraviy masalalar o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtda Sh.A. Alimov, R.R. Ashurov, S.R. Umarov, M. Yamamoto, A. Cabada, Yu. Luchko, Z. Li, Y. Liu va boshqa matematiklar kasrli tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish bilan faol shug‘ullanib kelishyapti. Chegaralangan va chegaralanmagan sohalarda kasr tartibli xususiy hosilali aralash tipdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalar S.X. Gekkiyeva, A.A. Kilbas va O.A. Repin, O.A. Repin va

A.V. Tarasenko, O.A. Repin, C.A. Sayganova, M.X. Ruziyev, R.T. Zunnunov ishlarida o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining F-FA-2021-424 “Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyidagilardan iborat**:**

aralash elliptik-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy sharti va buzilish chizig‘ida Frankl shartining analogi berilgan chegaraviy masalalarni tadqiq qilish hamda kasr tartibli diffuziya tenglamasi va buziluvchan giperbolik tenglama uchun nolokal chegaraviy masalalarni yechish.

Tadqiqotning vazifalari:

aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va ichki xarakteristikalarda siljishli chegaraviy masalalarni qo‘yish va o‘rganish;

umumlashgan Trikomi tenglamasi uchun ichki xarakteristikada va buzilish chizig‘ida Frankl shartining analogi berilgan shartlar bilan chegaraviy masalani tadqiq qilish;

chegaralanmagan sohalarda singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglama uchun nolokal chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlash;

kasr tartibli diffuziya tenglamasini o‘z ichiga olgan differensial tenglamalar uchun nolokal masala yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

kasr tartibli diffuziya tenglamasi va buziluvchan giperbolik tenglamalar uchun siljishli chegaraviy masalalarni tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti singulyar koeffitsiyentli butun va kasr tartibli xususiy hosilali aralash tipdagi differensial tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti singulyar koeffitsiyentli butun va kasr tartibli xususiy hosilali aralash tipdagi differensial tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ushbu dissertatsiyada ekstremum prinsipi, energiya integrali, singulyar integral tenglamalar va differensial tenglamalarni yechish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chegaralanmagan sohada singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun chegarada va ichki xarakteristikalarda siljishli shart bilan chegaraviy masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan;

umumlashgan Trikomi tenglamasi uchun ichki xarakteristikada va buzilish chizig‘ida Frankl sharti analogi bilan berilgan masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan;

elliptik qismi yuqori yarim tekislikdan iborat bo‘lgan sohada singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglama uchun nolokal chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

chegaralangan sohada kasr tartibli diffuziya tenglamasi va singulyar koeffitsiyentli buziluvchan giperbolik tipidagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy masalasi tipidagi chegaraviy masala yechimining mavjudlik va yagonaligi isbotlangan;

kasr tartibli diffuziya tenglamasini o‘z ichiga olgan differensial tenglamalar uchun chegaraviy sharti umumlashgan kasr tartibli integro-differentsiallash operatorlarining chiziqli kombinatsiyasidan iborat nolokal chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada aralash tipdagi tenglamalar va kasr tartibli diffuziya tenglamasi va buziluvchan giperbolik tenglama uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish imkonini beruvchi asosiy fundamental nazariy natijalar olindi. Bu natijalar katta amaliy ahamiyatga ega, masalan, ular fraktal tuzilishga ega bo‘lgan muhitda turli jarayonlarni tavsiflovchi va tadbiqlari bilan bog‘liq muhim amaliy muammolarni hal qiladigan matematik modellar sifatida ishlatilishi mumkin;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada olingan natijalarning ishonchliligi matematikada qabul qilingan tahlil usullari, butun va kasr hosilali aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning umumiy nazariyasi hamda teoremalarning qat’iy va to‘liq isbotlari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiya ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari texnik, fizik, biologik va gaz-dinamik jarayonlarni matematik modellashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalar yuzasidan dissertatsiya ishida olingan natijalar quyidagi ilmiy loyihalarda amaliyotga tatbiq etildi:

chegaralanmagan sohada singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun chegarada va ichki xarakteristikalarda siljishli shart bilan chegaraviy masalani yechilish usulidan NIOKTR 122041800029-5-raqamli “Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar va boshqarish masalalari va ularning taqsimlangan parametrli sistemalarni tadqiq qilishga tadbiqlari” mavzusidagi xorijiy loyihada aralash va giperbolik tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalarni yechishda qo‘llanilgan (Kabardin-Balkar ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish boshqarmasining 2024 yil 11 oktyabrdagi 01-13/49-sonli ma'lumotnoma, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalar qo‘llanilishi aralash giperbolik-parabolik tipdagi tenglamalar uchun Bitsadze-Samarskiy masalasi tipidagi masalalarni tadqiq qilish va birinchi tur buziladigan giperbolik tenglamalar va ikkinchi tartibli aralash-giperbolik tenglamalar uchun siljishli masalalarni samarali yechish imkonini bergan;

kasr tartibli diffuziya va buziladigan to‘lqin tenglamalari uchun nolokal masalalarni yechish usullaridan AAAA-A21-121011290003-0 raqamli “Quyosh va litosfera ta’siridagi yaqin kosmos va geosferalar tizimidagi fizik jarayonlar” mavzusidagi xorijiy loyihada tuproq-atmosfera sistemasida radon ko‘chish jarayonini modellashtirishda foydalanilgan (Uzoq Sharq bo‘limi Kosmo-fizik tadqiqotlar va radioto‘lqinlarning tarqalishi institutining, 2024 yil 21 oktyabrdagi

406-son ma'lumotnoma, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalar qo‘llanilishi kasr tartibli diffuziya tenglamasi uchun masalaning sonli yechimlari olingan hamda ularning vizualizatsiyasini amalga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining “Matematik fizikaning zamonaviy muammolari” ilmiy seminarida, Termiz davlat universitetining “Matematik tahlil” va “Algebra va geometriya” kafedralarning “Matematikaning zamonaviy muammolari” qo‘shma ilmiy seminarida, O‘zbekiston Milliy universiteti va M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialining “Differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy muammolari” qo‘shma ilmiy-amaliy seminarida, shuningdek, 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan 8 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan, 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida, shu jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 96 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati kirish qismida asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Singular koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalar” deb nomlangan bo‘lib, unda aralash sohaning elliptik qismi birinchi chorak bo‘lgan umumlashgan Trikomi tenglamasi uchun buzilish chizig‘ida Frankl sharti analogi va Bitsadze–Samarskiy shartli nolokal chegaraviy masalaning korrektligi o‘rganilgan. Aralash tipdagi tenglamalarning bir sinfi uchun ichki xarakteristikasida Gellerstedt sharti va buzilish chizig‘idagi kesmada siljishli shartli chegaraviy masalaning bir qiymatli yechimining mavjudligi isbotlangan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida maxsus funksiyalar, Riman-Liuvill ma'nosida kasr integro-differensiallash operatorining ta'riflari, shuningdek, yadrosi Gauss gipergeometrik funktsiyasi bo‘lgan umumlashgan kasr tartibli integro-differentsiallash operatoriga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi paragrafda quyidagi tenglama uchun

$$\operatorname{sign} y\,|y|^m u_{xx} + u_{yy} + \frac{\beta_0}{y} u_y = 0, \tag{1}$$

bu yerda $m > 0$, $-m/2 < \beta_0 < 1$, nolokal masala yechimining yagonaligi va mavjudligi isbotlangan.

$D = D^+ \cup D^- \cup I$ $z = x + iy$ kompleks tekislikning sohasi bo'lib, bu yerda D^+ – tekislikning birinchi choragi va D^- – (1) tenglamaning $O(0,0)$, $B(1,0)$ nuqtalaridan chiquvchi va $C\left(1/2, -\left((m+2)/4\right)^{2/(m+2)}\right)$ nuqtada kesishuvchi OC va BC xarakteristikalari hamda $y = 0$ o'qning OB kesmasi bilan chegaralangan soha, $I = \{(x,y): 0 < x < 1, y = 0\}$.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $I_0 = \{(x,y): 0 < y < \infty, x = 0\}$, $I_1 = \{(x,y): 1 < x < \infty, y = 0\}$, C_0 va C_1 mos ravishda OC va BC xarakteristikalar bilan $E(c,0)$, nuqtadan chiquvchi xarakteristikalar kesishish nuqtalarini, bu yerda $c \in I-$ ixtiyoriy tayin son.

$q(x) \in C^1[c,1]-$funksiya $[c,1]$ nuqtalar to'plamini $[0,c]$, nuqtalar to'plamiga akslantiruvchi diffeomofizm bo'lib, quyidagi shartlarni qanoatlantirsin $q'(x) < 0$, $q(c) = c$, $q(1) = 0$. Misol sifatida quyidagi chiziqli funksiyani olishimiz mumkin $q(x) = k(1-x)$, bu yerda $k = c/(1-c)$.

EG$_1$ masala. D sohada ushbu shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x,y) \in C(\bar{D})$, bu yerda $\bar{D} = \bar{D}^- \cup D^+ \cup \bar{I}_0 \cup \bar{I}_1$;

2) $u(x,y) \in C^2(D^+)$ bo'lib, (1) tenglamani D^+ sohada qanoatlantirsin;

3) $u(x,y)$ funksiya D^- sohada R_1 sinfga tegishli umumlashgan yechimi bo'lsin;

4) ushbu tengliklar bajarilsin

$$\lim_{R\to\infty} u(x,y) = 0,\ R^2 = x^2 + \frac{4}{(m+2)^2} y^{m+2},\ x > 0,\ y > 0;$$

5) $u(x,y)$ chegaraviy shartlarni

$$u(0,y) = \varphi(y),\quad y \ge 0,$$
$$u(x,0) = \tau_1(x),\quad x \in \bar{I}_1,$$
$$x^\beta D_{0,x}^{1-\beta} u[\theta(x)] = \delta(x)(x-c)^\beta D_{c,x}^{1-\beta} u[\theta^\star(x)] + \psi(x),\ c < x < 1,$$
$$u(q(x),0) = \mu u(x,0) + f(x),\ c \le x \le 1,$$

va ulash shartini

$$\lim_{y\to+0} y^{\beta_0} \frac{\partial u}{\partial y} = \lim_{y\to-0} (-y)^{\beta_0} \frac{\partial u}{\partial y},\quad x \in I \setminus \{c\},$$

qanoatlantirsin. Bu limitlar $x = 0$, $x = 1$, $x = c$ nuqtalarda $1-2\beta$ dan kichik tartibda maxsuslikka ega bo'lishi mumkin, bu yerda $\beta = (m+2\beta_0)/\left(2(m+2)\right)$. Yuqoridagi shartlarda berilgan funksiyalar quyidagicha $f(x) \in C[c,1] \cap C^{1,\delta_1}(c,1)$,

$f(1)=0$, $f(c)=0$, $\mu=\text{const}$, $\delta(x)$, $\psi(x)\in C[c,1]\cap C^{1,\delta_2}(c,1)$, $\tau_1(x)$–funksiya $\tau_1(x)\in C(\overline{I}_1)$ bo‘lib, $x=1$ nuqta atrofida $\tau_1(x)=(1-x)\tilde{\tau}_1(x)$, $\tilde{\tau}_1(x)\in C(\overline{I}_1)$ ko‘rinishida ifodalanadi va yetarlicha katta x lar uchun $|\tau_1(x)|\le M/x^{\varepsilon}$ tengsizlikni qanoatlantiradi, bu yerda ε, $M-$ musbat o‘zgarmas sonlar va ixtiyoriy $[1,N]$, $N>1$ kesmada Gyolder shartini qanoatlantirsin. $\varphi(y)$ funksiya $\varphi(y)\in C(\overline{I}_0)$, $y^{(3m+2\beta_0)/4}\varphi(y)\in L(0,\infty)$ bo‘lib, ixtiyoriy $[0,H]$, $H>0$ kesmada Gyolder shartini qanoatlantirib $\varphi(\infty)=0$, $\varphi(0)=0$ bo‘lsin. $D_{0,x}^{1-\beta}$ va $D_{c,x}^{1-\beta}$ operatorlar Riman–Liuvill ma’nosidagi kasr tartibli differensiallash operatorlari. C_0C va EC_1 xarakteristikalar bilan $(x_0,0)$, $x_0\in(c,1)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikaning kesishish nuqtalarini mos ravishda quyidagicha belgilaymiz:

$$\theta(x_0)=\left(x_0/2,-\left(\left((m+2)x_0\right)/4\right)^{2/(m+2)}\right),$$

$$\theta^{\star}(x_0)=\left((c+x_0)/2,-\left((m+2)(x_0-c)/4\right)^{2/(m+2)}\right).$$

1-teorema. Ushbu shartlar $0<\mu<1$, $\delta(x)\le 0$ bajarilgan bo‘lsin. U holda, agar EG$_1$ masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

2-teorema. $q(x)=k(1-x)$, $0<\mu<1$, $\delta(x)\le 0$, $\beta_0>-(m-1)/3$, $\mu k^{1/2-3\alpha}\left(1+2\sin(\beta\pi)\omega(c)\right)<1$ bo‘lsin, bu yerda $\alpha=(1-2\beta)/4$, $k=c/(1-c)$, $\omega(c)=1/(1-\delta(c))$. U holda EG$_1$ masalaning yechimi mavjud.

Bu teoremani isbotlash uchun EG$_1$ masala quyidagi noma’lum $\tau(x)$ qatnashgan integral tenglamani yechishga olib kelinadi:

$$\tau(x)-\lambda\int_c^1\left(\frac{x-c}{t-c}\right)^{1-2\beta}\frac{\tau(t)dt}{t-x}=g(x),\ x\in(c,1), \tag{2}$$

bu yerda

$$g(x)=\mu k\lambda\left(1+2\sin(\beta\pi)\omega(x)\right)\int_c^1\left(\frac{x-c}{c-q(t)}\right)^{1-2\beta}\frac{\tau(t)dt}{x-q(t)}+R[\tau]+F_1(x), \tag{3}$$

$R[\tau]-$regulyar operator, $F_1(x)-$berilgan funksiyalar orqali ifodalangan, $\lambda=\dfrac{\cos(\beta\pi)}{\pi\left(1+\sin(\beta\pi)\right)}$.

(3) tenglikning o‘ng tomonidagi birinchi operator regulyar operator emas, chunki, integral ostidagi ifoda $x=c$, $t=c$ nuqtada birinchi tartibli maxsuslikka ega, shuning uchun bu qo‘shiluvchi ajratib yozilgan.

(2) integral tenglama yechimini $x=1$ nuqtada chegaralangan, $x=c$ nuqtada esa $1-2\beta$ dan kichik tartibda maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan $(c,1)$ oraliqda Gyolder sinfiga tegishli qilib izlaymiz. Bu sinfda (2) tenglamaning indeksi nolga teng. (2) tenglamaga Karleman–Vekua metodini qo‘llab uning yechimini quyidagi ko‘rinishda olamiz

$$\tau(x)=\cos^2(\pi\alpha)g(x)+\frac{\sin(2\pi\alpha)}{2\pi}\int_c^1\left(\frac{(1-x)(x-c)^3}{(1-t)(t-c)^3}\right)^{\alpha}\frac{g(t)dt}{t-x},\ x\in(c,1). \qquad (4)$$

Endi (3) dagi $g(x)$ ni (4) ga qo‘ysak quyidagini hosil qilishimiz mumkin

$$\rho(\xi)=\int_0^{\infty}N(\xi-t)\rho(t)dt+R_4[\rho(\xi)]+F_3(\xi),\ \xi\in(0,\infty), \qquad (5)$$

bu yerda $\rho(\xi)=\tau(c+(1-c)e^{-\xi})e^{(3\alpha-1/2)\xi}$, $R_4[\rho(\xi)]$–regulyar operator, $F_3(\xi)$– berilgan funksiyalar orqali ifodalangan, $N(\xi)=\dfrac{\lambda\mu k^{1-3\alpha}\left(1+2\sin(\beta\pi)\omega(c)\right)\cos(\alpha\pi)}{ke^{\frac{\xi}{2}}+e^{-\frac{\xi}{2}}}$.

$N(\xi)\in C(0,\infty)$, $F_3(\xi)\in H_\theta(0,\infty)$ funksiyalar cheksizlikda eksponential tartibda kamayadi, bundan $N(\xi),\ F_3(\xi)\in L_2\cap H_\theta$.

(5) tenglama Viner–Hopf integral tenglamasi va Furye almashtirishi orqali Rimanning chegaraviy masalasiga keltiriladi.

O‘rama tipidagi integral tenglamalar uchun Fredgolm teoremalari faqat bitta xususiy holda, ya’ni tenglamaning indeksi nolga teng bo‘lganda o‘rinli. (5) tenglamaning indeksi nolga tengligi ko‘rsatilgan. Bundan, (5) tenglama bir qiymatli yechilishi masala yechimining yagonaligidankelib chiqadigan Fredgolm ikkinchi tur integral tenglamasiga bir qiymatli ravishda keltiriladi.

Uchinchi paragrafda EG_2 masalaning korrektligini o‘rganilgan bo‘lib, bu yerda ichki xarakteristika EC_0 Gellerstedt shartidan ozod qilinadi va bu yetishmayotgan shart ekvivalent ravishda buzilish chizig‘i kesmasidagi Frankl shartiga o‘xshash nolokal shart bilan almashtiriladi.

EG_2 masala. D sohada ushbu shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x,y)\in C(\bar{D})$, bu yerda $\bar{D}=\bar{D}^-\cup D^+\cup\bar{I}_0\cup\bar{I}_1$;

2) $u(x,y)\in C^2(D^+)$ bo‘lib, (1) tenglamani D^+ sohada qanoatlantirsin;

3) $u(x,y)$ funksiya D^- sohada R_1 sinfga tegishli umumlashgan yechim bo‘lsin;

4) ushbu tengliklar bajarilsin

$$\lim_{R\to\infty}u(x,y)=0,\ R^2=x^2+\frac{4}{(m+2)^2}y^{m+2},\ x>0,\ y>0;$$

5) $u(x,y)$ chegaraviy shartlarni

$$u(0,y)=\varphi(y),\ \ y\ge 0,$$
$$u(x,0)=\tau_1(x),\ \ x\in\bar{I}_1,$$
$$u(x,y)|_{EC_1}=\psi(x),\ c\le x\le\frac{c+1}{2},$$
$$u(q(x),0)=\mu u(x,0)+f(x),\ c\le x\le 1,$$

va ulash shartini

$$\lim_{y\to+0} y^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y}=\lim_{y\to-0}(-y)^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y},\quad x\in I\setminus\{c\},$$

qanoatlantirsin. Bu limitlar $x=0$, $x=1$, $x=c$ nuqtalarda $1-2\beta$ dan kichik tartibda maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin, bu yerda $\beta=(m+2\beta_0)/\left(2(m+2)\right)$. Yuqoridagi shartlarda berilgan $\varphi(y),\ \tau_1(x),\ \psi(x),\ f(x)$ funksiyalar quyidagicha:

$\varphi(y)$ funksiya $\varphi(y)\in C(\overline{I}_0),\ y^{\left(3m+2\beta_0\right)/4}\varphi(y)\in L(0,\infty)$ bo‘lib, ixtiyoriy $[0,H]$, $H>0$ kesmada Gyolder shartini qanoatlantirib $\varphi(\infty)=0,\ \varphi(0)=0$ bo‘lsin;

$\tau_1(x)$–funksiya $\tau_1(x)\in C(\overline{I}_1)$ bo‘lib, $x=1$ nuqtada atrofida $\tau_1(x)=(1-x)\tilde{\tau}_1(x),\ \tilde{\tau}_1(x)\in C(\overline{I}_1)$ ko‘rinishida ifodalanadi va yetarlicha katta x lar uchun $|\tau_1(x)|\le M/x^{\varepsilon}$ tengsizlikni qanoatlantiradi, bu yerda $\varepsilon,\ M-$ musbat o‘zgarmas sonlar va ixtiyoriy $[1,N]$, $N>1$ kesmada Gyolder shartini qanoatlantirsin;

$\psi(x)\in C[c,1]\cap C^{1,\delta_2}(c,1)$, $\psi(c)=0$;

$f(x)\in C\left[c,1\right]\cap C^{1,\delta_1}\left(c,1\right),\ \ f(1)=0,\ \ f(c)=0,\ \ 0<\mu<1.$

3-teorema. Ushbu $0<\mu<1$ shart bajarilgan bo‘lsin. U holda, agar EG_2 masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

4-teorema. Quyidagi shartlar bajarilsin $\mu k^{1/2-3\alpha}\sin(\alpha\pi)<1$, $\beta_0>-(m-1)/3,\ \ q(x)=k(1-x),$ bu yerda $\alpha=(1-2\beta)/4.$ U holda EG_2 masala yechimi mavjud.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi “Singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglama uchun Bitsadze–Samarskiy tipidagi masala”** deb nomlanadi.

Bu bobda cheksiz sohada singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi elliptik-giperbolik tipdagi tenglama uchun chegaraviy shartda yadrosi Gauss gipergeometrik funksiyasini o‘z ichiga olgan umumlashgan kasr tartibli differensial operatorlar qatnashgan nolokal chegaraviy masala qaralgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida quyidagi tenglama uchun

$$\operatorname{sign} y\,|y|^m u_{xx}+u_{yy}+\frac{\alpha_0}{|y|^{1-\frac{m}{2}}}u_x+\frac{\beta_0}{y}u_y=0, \tag{6}$$

bu yerda $m>0,\ |\alpha_0|<(m+2)/2,\ -m/2<\beta_0<1$, chegaraviy masala qo‘yilgan.

$D=D^+\cup D^-\cup I$, $z=x+iy$ kompleks tekislikning sohasi bo‘lib, $D^+-y>0$ yarim tekislik, D^- – (6) tenglamaning $O(0,0)$, $B(1,0)$ nuqtalaridan chiquvchi va $C\left(1/2,-\left((m+2)/4\right)^{2/(m+2)}\right)$ nuqtada kesishuvchi OC va BC xarakteristikalari hamda $y=0$ o‘qning OB kesmasi bilan chegaralangan, $I=\{(x,y):0<x<1,y=0\}$.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $I_1=\{(x,y):-\infty<x<0,\ \ y=0\}$, $I_2=\{(x,y):1<x<\infty,\ \ y=0\}$.

(6) tenglamaning yechimi tenglamadagi α_0 va β_0 larning qiymatlariga bog‘liq. $\alpha_0 O \beta_0$ parametrik tekislikda $B_0C_0 : \beta_0 - \alpha_0 = -m/2$, $A_0C_0 : \beta_0 + \alpha_0 = -m/2$, $A_0B_0 : \beta_0 = 1$ to‘g‘ri chiziqlar bilan chegaralangan $A_0B_0C_0$, uchburchakni qaraymiz. $P(\alpha_0, \beta_0)$ nuqta bu uchburchakda joylashuviga qarab (6) tenglama uchun chegaraviy masalalar turlicha qo‘yiladi.

$P(\alpha_0, \beta_0) \in A_0B_0C_0$ bo‘lsin.

A **masala**. D sohada ushbu shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x, y) \in C(\bar{D}) \cap C^2(D)$, bu yerda $\bar{D} = D^+ \cup \bar{D}^- \cup \bar{I}_1 \cup \bar{I}_2$;

2) $D^+ \cup D^-$ sohada (6) tenglamani qanoatlantirsin;

3) ushbu tengliklar bajarilsin

$$\lim_{R\to\infty} u(x, y) = 0, \;\; R^2 = x^2 + \frac{4}{(m+2)^2} y^{m+2}, \;\; y \geq 0;$$

4) $u(x, y)$ chegaraviy shartlarni

$$u(x, y)|_{y=0} = \varphi_i(x), \;\; \forall x \in \bar{I}_i,$$

$$A_1(I_{0+}^{-\alpha, 0, \alpha+\beta-1} u[\Theta(t)])(x) + A_2 u(x, 0) = g(x),$$

va ulash shartini

$$\lim_{y\to+0} y^{\beta_0} \frac{\partial u}{\partial y} = \lim_{y\to-0} (-y)^{\beta_0} \frac{\partial u}{\partial y}, \quad x \in I,$$

qanoatlantirsin. Bu limitlar $x = 0$, $x = 1$ nuqtalarda $1 - \alpha - \beta$ dan kichik tartibda maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin, bu yerda $\alpha = \dfrac{m + 2(\beta_0 + \alpha_0)}{2(m+2)}$, $\beta = \dfrac{m + 2(\beta_0 - \alpha_0)}{2(m+2)}$.

Yuqoridagi shartlarda $g(x)$, $\varphi_i(x)$ berilgan funksiyalar quyidagicha:

$\varphi_i(x)$, $i = 1, 2$ funksiyalar $[-N+1, 0]$, $[1, N]$, $N > 1$ kesmalarda Gyolder shartini qanoatlantirsin va yetarlicha katta $|x|$ lar uchun $|\varphi_i(x)| \leq M |x|^{-\delta}$ tengsizlik bajarilsin, bu yerda δ, $M -$ musbat o‘zgarmaslar.

$\Theta(x)$ – (6) tenglamaning OC xarakteristikasi bilan $(x, 0) \in I$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikasining kesishish nuqtasi;

$\left(I_{0+}^{\mu, \rho, \eta} f\right)(x) -$ M.Saygo tomonidan kiritilgan, yadrosida Gauss gipergeometrik funksiyasi qatnashgan umumlashgan integro-differensial operator bo‘lib, μ, ρ, η haqiqiy sonlar uchun va $f(x) \in L(0,1)$, $x > 0$ uchun quyidagi ko‘rinishga ega

$$\left(I_{0+}^{\mu,\rho,\eta} f\right)(x) = \begin{cases} \dfrac{x^{-\mu-\rho}}{\Gamma(\mu)} \displaystyle\int_0^x (x-t)^{\mu-1} F\left(\mu+\rho, -\eta; \mu; 1-\dfrac{t}{x}\right) f(t)dt, & \mu > 0, \\ \left(\dfrac{d}{dx}\right)^n \left(I_{0+}^{\mu+n,\rho-n,\eta-n} f\right)(x), & \mu \le 0, \ n = [-\mu]+1. \end{cases}$$

$\mu > 0$ uchun quyidagi tengliklar o‘rinli

$$(I_{0+}^{\mu,-\mu,\eta} f)(x) = (I_{0+}^{\mu} f)(x), \ (I_{0+}^{-\mu,\mu,\eta} f)(x) = (D_{0+}^{\mu} f)(x),$$

xususan

$$(I_{0+}^{0,0,\eta} f)(x) = f(x), \ (I_{1-}^{0,0,\eta} f)(x) = f(x),$$

bu yerda $(I_{0+}^{\mu} f)(x)$ va $(D_{0+}^{\mu} f)(x)$ operatorlar $\mu > 0$ tartibli Riman–Liuvull ma’nosidagi integrallash va differensiallash operatorlari bo‘lib quyidagicha:

$$(I_{0+}^{\mu} f)(x) = \frac{1}{\Gamma(\mu)} \int_0^x (x-t)^{\mu-1} f(t)dt, \ \mu > 0, \ x > 0,$$

$$(D_{0+}^{\mu} f)(x) = \left(\frac{d}{dx}\right)^n \frac{1}{\Gamma(n-\mu)} \int_0^x (x-t)^{n-\mu-1} f(t)dt, \ \mu > 0, \ n = [\mu]+1.$$

Ikkinchi paragrafda A masalaning yagona yechimi mavjudligi isbotlangan.

5-teorema. Quyidagi shartlar $A_1 > 0, \ A_2 \ge 0, \ \alpha_0 \le 0$ va $\beta_0 \le (2-m)/4$ bajarilsin. U holda A masalasi bir qiymatli yechiladi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi “Kasr tartibli diffuziya tenglamasi va buziluvchan giperbolik tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalar”** deb nomlanadi. Bu bobda quyidagi differensial tenglama uchun

$$\begin{cases} u_{xx} - D_{0,y}^{\gamma} u = 0, \ \gamma \in (0,1), \ y > 0, \\ -(-y)^m u_{xx} + u_{yy} + \dfrac{\alpha_0}{(-y)^{1-m/2}} u_x + \dfrac{\beta_0}{y} u_y = 0, \ y < 0, \end{cases} \tag{7}$$

bu yerda $D_{0,y}^{\gamma}$ – $u(x,y)$ funksiyadan olingan Riman–Liuvill ma’nosidagi γ $(0 < \gamma < 1)$ tartibli xususiy hosilali differensial operator, $m > 0, \ |\alpha_0| < (m+2)/2$, $-m/2 < \beta_0 < 1$, chekli va cheksiz sohalarda umumlashgan kasr tartibli integro-differensial operator hamda shunday operatorlarning chiziqli kombinatsiyasi qatnashgan nolokal chegaraviy masalalar o‘rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida (7) tenglama uchun $y > 0$ yarim tekislikda yotuvchi $x = 0, \ x = 1, \ y = 1$ to‘g‘ri chiziqlardagi OO_0, BB_0, O_0B_0 kesmalar va $y < 0$ yarim tekislikda $O(0,0)$ va $B(1,0)$ nuqtalardan chiquvchi OC va BC xarakteristikalar bilan chegaralangan chekli D sohada nolokal masala qaralgan.

PG$_1$ masala. (7) tenglamaning D sohadagi quyidagi chegaraviy va ulash shartlarini qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimi topilsin:

$$u(0,y)=\varphi_1(y),\ \ u(1,y)=\varphi_2(y),\ \ 0\le y\le 1,$$
$$A_1\left(I_{0+}^{-\alpha,0,\alpha+\beta-1}u\left[\Theta_0(t)\right]\right)(x)+A_2u(x,0)=g(x),$$
$$\lim_{y\to 0+}y^{1-\gamma}u(x,y)=\lim_{y\to 0-}u(x,y),\ \ \forall x\in\overline{I}, \tag{8}$$
$$\lim_{y\to 0+}y^{1-\gamma}(y^{1-\gamma}u(x,y))_y=\lim_{y\to 0-}(-y)^{\beta_0}u_y(x,y),\ \ \forall x\in I,$$
bu yerda $A_1,\ A_2-$ quyidagi tengsizlikni qanoatlantiruvchi o‘zgarmas sonlar
$$-\frac{\Gamma(\beta)A_2}{\Gamma(\alpha+\beta)}<A_1<0\ \ \left(0<A_1<-\frac{\Gamma(\beta)A_2}{\Gamma(\alpha+\beta)}\right), \tag{9}$$
$\varphi_1(y),\ \varphi_2(y),\ g(x)-$berilgan funksiyalat ushbu sinflarga tegishli
$$g(x)\in C^1(\overline{I})\cap C^3(I),\ \varphi_1(0)=\varphi_2(0)=0,$$
$$y^{1-\gamma}\varphi_1(y),\ y^{1-\gamma}\varphi_2(y)\in C([0,1]). \tag{10}$$
(7) tenglamaning OC xarakteristikasi bilan $(x,0)\in I$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikasi kesishgan nuqtasini $\Theta_0(x)$ bilan belgilaymiz.
$$\alpha=\frac{m+2(\beta_0+\alpha_0)}{2(m+2)},\ \ \beta=\frac{m+2(\beta_0-\alpha_0)}{2(m+2)}.$$
$u(x,y)$ yechimni quyidagi sinflardan izlaymiz
$$y^{1-\gamma}u(x,y)\in C(\overline{D^+}),\ \ u(x,y)\in C(\overline{D^-}),$$
$$y^{1-\gamma}\left(y^{1-\gamma}u(x,y)\right)_y\in C\left(D^+\cup\{(x,y):0<x<1,\ y=0\}\right),$$
$$u_{xx}\in C(D^+\cup D^-),u_{yy}\in C(D^-).$$
$\left(I_{0+}^{\mu,\rho,\eta}f\right)(x)-$ M.Saygo tomonidan kiritilgan, yadrosida Gauss gipergeometrik funksiyasi bo‘lgan umumlashgan integro-differensial operator.

1-lemma. Agar $\tau_1(x)$ funksiya o‘zining musbat maksimumi (manfiy minimumi)ga $[0,1]$ kesmadagi $x=x_0\ \left(0<x_0<1\right)$ nuqtada erishsa, u holda $\nu_1(x_0)\le 0\ \ \left(\nu_1(x_0)\ge 0\right)$ o‘rinli.

2-lemma. Agar $\tau_2(x)$ funksiya o‘zining musbat maksimumi (manfiy minimumi)ga $[0,1]$ kesmadagi $x=x_0\ \left(0<x_0<1\right)$ nuqtada erishib, $g(x)=0$ va (9) shartlar bajarilsa, u holda $\nu_2(x_0)>0\ \ (\nu_2(x_0)<0)$ bo‘ladi.

6-teorema. (9) tengsizlik bajarilsin. U holda PG_1 masalaning yechimi mavjud bo‘lsa u yagonadir.

7-teorema. (10) shart bajarilsin. U holda PG_1 masala yechimi mavjud.

Ikkinchi paragrafda (7) tenglama uchun chegaraviy shartida Saygo operatorining chiziqli kombinatsiyasi qatnashgan nolokal masala qaralgan.

PG₂ masala. D sohada (7) tenglamaning quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ yechimi topilsin:
$$y^{1-\gamma}u\,|_{y=0}=0,\ \ (-\infty<x\le 0,\ 1\le x<\infty),$$
$$A_1x^{1+b-\alpha-\beta}(I_{0+}^{a,b,-a-\alpha}t^{\alpha+\beta-1}u[\Theta_0(t)])(x)+A_2(I_{0+}^{a+\alpha,0,\beta-1-a-b}u(t,0))(x)=g(x),\ \ x\in I,$$

$$\lim_{y\to 0-} u(x,y) = c(x)\lim_{y\to 0+} y^{1-\gamma}u(x,y),\ \forall x\in \overline{I},$$

$$\lim_{y\to 0-} (-y)^{\beta_0}u_y(t,y) = d(x)\lim_{y\to 0+} y^{1-\gamma}(y^{1-\gamma}u(x,y))_y,\ \forall x\in I,$$

bu yerda $\left(I_{0+}^{\mu,\rho,\eta} f\right)(x)-$ yadrosi $F(a,b,c;z)$ Gauss gipergeometrik funksiya bo‘lgan umumlashgan integro-differensial operator, $\alpha = \dfrac{m+2(\beta_0+\alpha_0)}{2(m+2)}$, $\beta = \dfrac{m+2(\beta_0-\alpha_0)}{2(m+2)}$, $A_1,\ A_2$ $-$haqiqiy o‘zgarmas sonlar, $a>\max\{-\alpha,\beta-1\}$ ni qanoatlantiruvchi $a,\ b$ – haqiqiy sonlar, $g(x),\ c(x),\ d(x)-$ berilgan funksiyalar quyidagi shartlarni bajaradi

$$g(x)\in C^1(\overline{I})\cap C^2(I),\ c(x),\ d(x)\in C^2(\overline{I})\cap C^3(I),$$

$$c(x)d(x)>0,\ \frac{d^2}{dx^2}\left[c(x)d(x)\right]\le 0.$$

Qo‘yilgan masalaning $u(x,y)$ yechimini D sohada quyidagi sinfdan izlaymiz

$$y^{1-\gamma}u(x,y)\in C(\overline{D^+}),\ u(x,y)\in C(\overline{D^-}),$$

$$y^{1-\gamma}(y^{1-\gamma}u(x,y))_y\in C(D^+\cup\{(x,y):0<x<1, y=0\}),$$

$$u_{xx}\in C(D^+\cup D^-),\ u_{yy}\in C(D^-).$$

8-teorema. $A_1\le 0,\ A_2>0,\ c(x)d(x)>0,\ \dfrac{d^2}{dx^2}\left[c(x)d(x)\right]\le 0$ bo‘lsin. U holda, agar PG_2 masalaning yechimi mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

9-teorema. a) $k_1\ne 0,\ k_2=0$; b) $k_1=0,\ k_2\ne 0$; c) $c(x)=c=\text{const}$; d) $c(x)=c=\text{const},\ d(x)=d=\text{const}$ bo‘lsin, bu yerda $k_1=A_1\Gamma(\alpha+\beta)/\Gamma(\beta)-A_2$, $k_2=-A_1\Gamma(1-\alpha-\beta)/\Gamma(1-\alpha)\left(2/(m+2)\right)^{\alpha+\beta}$. U holda PG_2 masala yechimi mavjud.

$\alpha_0=0,\ \beta_0=-\dfrac{m}{2}$ bo‘lsin.

PG_3 masala. Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi (7) tenglama $u(x,y)$ yechimi topilsin

$$y^{1-\gamma}u|_{y=0}=0,\ \ (-\infty<x\le 0,\ 1\le x<\infty),$$

$$\frac{d}{dx}u[\Theta_0(x)]=\frac{d}{dx}u(x,0)+\delta(x),$$

$$\lim_{y\to 0-} u(x,y)=\lim_{y\to 0+} y^{1-\gamma}u(x,y),\forall x\in\overline{I},$$

$$\lim_{y\to 0-}(-y)^{-\frac{m}{2}}u_y(x,y)=\lim_{y\to 0+} y^{1-\gamma}(y^{1-\gamma}u(x,y))_y,\forall x\in I.$$

Bu yerda $\delta(x)-$ berilgan funksiya bo‘lib, $C^1(\overline{I})\cap C^2(I)$ sinfga tegishli.

PG_3 masalasi PG_2 masalasi kabi yechiladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy natijalar olingan:

ekstremum prinsipi yordamida va integral tenglamalar usuli bilan singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun nolokal chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan, Karleman-Vekua usulidan foydalanib, hosil boʻlgan oʻng tomoni nofredgolm operatoridan iborat singulyar integral tenglama Viner-Hopf integral tenglamasiga keltirilgan, uning indeksi nolga tengligi koʻrsatilgan;

aralash tipdagi tenglamalarning bir sinfi uchun ichki xarakteristikada Gellerstedt sharti va buzilish chizigʻida Frankl shartiga oʻxshash shartli chegaraviy masala yechimining mavjudlik va yagonaligi isbotlangan;

singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglama uchun chegaraviy shartda yadrosi Gauss gipergeometrik funksiyasini oʻz ichiga olgan umumlashgan kasr tartibli integro-differentsial operator qatnashgan nolokal masalaning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

kasr tartibli diffuziya tenglamasi va buziluvchan giperbolik tenglama uchun nolokal chegaraviy masala yechimining mavjudlik va yagonaligi isbotlangan;

kasr tartibli diffuziya tenglamasini oʻz ichiga olgan differensial tenglama uchun chegaraviy sharti umumlashgan kasr tartibli integro-differentsiallash operatorlarining chiziqli kombinatsiyasini oʻz ichiga olgan chegaraviy masala yechimining bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО**

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ

ЮЛДАШЕВА НАРГИЗА ТАХИРЖОНОВНА

НЕЛОКАЛЬНЫЕ КРАЕВЫЕ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЙ СМЕШАННОГО ТИПА С СИНГУЛЯРНЫМ КОЭФФИЦИЕНТОМ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №. B2024.1.PhD/FM1011.

Диссертация выполнена в Институте математики имени В.И.Романовского.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://kengash.mathinst.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (http://www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Рузиев Менглибай Холтожибаевич** доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	**Дурдиев Дурдимурод Каландарович** доктор физико-математических наук, профессор
	Эргашев Тухтасин Гуламжанович доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Ферганский государственный университет**

Защита диссертации состоится 7 января 2025 года в 17:00 на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И.Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 194). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан 20 декабря 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от 20 декабря 2024 года).

У.А. Розиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

Ж.К. Адашев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.,старший научный сотрудник

А.А.Азамов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире многие стремительно развивающие направления науки и прикладные исследования, приводят к исследованию локальных и нелокальных граничных задач для уравнений смешанного типа с частными производными целого и дробного порядка. Математическими моделями многих биологических, физических и химических процессов представляют собой вышеуказанные задачи и применяются в гидродинамике, газовой динамике, теории бесконечно малых изгибов поверхностей, аэродинамике, математической биологии и в разных других разделах науки. Исследование математических моделей процессов окружающей среды, представляет теоретическую основу уравнений смешанного типа.

На сегодняшний день во многих научных школах во всем мире широко развиваются направления решения нелокальных граничных задач, в том числе краевые задачи с участием оператора дробного интегрирования и дифференцирования в граничных условиях. Изучение таких задач становится все более актуальным так как, локальные и нелокальные задачи, изучаемые для уравнений смешанного типа, имеют большое значение при математическом моделировании обмена тепло массы в объектах со сложным строением, нефтяных бассейнов, фильтрации подземных вод и других явлениях. Дифференциальные уравнения с производными дробного порядка используются при описании физических процессов стохастического переноса, а также при изучении деформационно-прочностных свойств полимерных материалов. Дифференциальные уравнения дробного порядка возникают в задачах диффузии, гидродинамики, классической механики и теплопроводности.

В нашей республике значительное внимание предоставляется фундаментальным наукам, имеющим научное и практическое применение. В том числе, значительное внимание предоставляется исследованию нелокальных краевых задач для уравнений смешанного типа с сингулярными коэффициентами, а также, нахождению результативных методов их решения. Проведение научных исследований на уровне международных стандартов в приоритетных областях математических наук, в частности, в области уравнений с целыми и дробными производными являются одной из ключевых задач Института математики имени В.И.Романовского[1]. Развитие теории уравнений смешанного типа с частными производными целого и дробного порядков имеет большое значение при исполнении этого Постановления.

Тема и объект исследования этой диссертации находятся в содержание задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947

[1] Указ Президента Республики Узбекистан № ПП-4387 от 09 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института математики имени В. И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан».

от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», в постановлениях № ПП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПП-3682 от 27 апреля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов», № ПП-4708 от 07 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» и в других нормативно-правовых актах, относящихся или касающихся фундаментальной науки.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии в республике. Настоящее исследование выполнено в согласно с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

